

NOSIR AL-MUTARRIZIY VA IBN AJRUMNING ARAB NAHV ILMI RIVOJIDAGI O'RNI: ILMIY MEROS VA TA'LIMIY YONDASHUVLAR QIYOSIY TAHLILI

Alimova Muslimabonu Abduvorisovna

Alfraganus universiteti Filiologiya fakulteti

Arab filiologiyasi yo'nalishi talabasi

Raxmonov Azimjon Komilovich

Alfraganus universiteti Filologiyasi fakulteti

Tillarni o'qitish markazi rahbari

Annotatsiya. Mazkur maqolada arab tilshunosligining ikki yirik vakili – Nosir al-Mutarriziy va Ibn Ajrumning nahv ilmi rivojiga qo'shgan hissasi qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda al-Mutarriziyning “Risalatun fi-n-nahv” asari hamda Ibn Ajrumning “Al-Muqaddima al-Ajrumiyya” asari ilmiy va didaktik xususiyatlari nuqtai nazaridan o'rganiladi. Shuningdek, ularning grammatik masalalarni yoritish uslubi, nahv terminologiyasidan foydalanish tamoyillari va arab tili ta'limidagi o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida har ikki olimning arab nahv ilmi taraqqiyotidagi o'ziga xos o'rni yoritilib, ularning ilmiy merosidan zamonaviy arab tilini o'qitishda foydalanish imkoniyatlari asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Nosir al-Mutarriziy, Ibn Ajrum, Ajrumiyya, nahv, Mag'rib, i'rob, Basra maktabi, Kufa maktabi, sharh, Qaraviyin, Marinidl

Arab tilshunosligi tarixida nahv ilmining rivojiga ulkan hissa qo'shgan olimlar orasida Nosir al-Mutarriziy va Ibn Ajrum alohida o'rin egallaydi. Garchi ular turli davr va hududlarda yashab ijod qilgan bo'lsalar-da, ularning asarlari arab grammatikasi taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Nosir al-Mutarriziy (1144–1213) Movarounnahr ilmiy muhitining yirik vakili sifatida nahv, lug'atshunoslik va balog'at sohalarida sermahsul ijod qilgan. Uning “Risalatun fi-n-nahv” asari arab

grammatikasining asosiy masalalarini ilmiy-nazariy yondashuv asosida yoritishi bilan ajralib turadi. Asarda grammatik qoidalar izchil bayon qilinib, ularning qo‘llanishi dalillar va misollar yordamida asoslab beriladi.

Ibn Ajrum (1273–1323) esa Mag‘rib nahv maktabining mashhur vakillaridan biri bo‘lib, uning “Al-Muqaddima al-Ajrumiyya” asari arab dunyosida nahv ilmini o‘rganishning eng muhim boshlang‘ich qo‘llanmalaridan biri hisoblanadi. Ushbu asar qisqa va sodda uslubda yozilgani sababli asrlar davomida madrasalarda asosiy darslik sifatida foydalanib kelinmoqda. Mutarriziy va Ibn Ajrum asarlari o‘z metodik yondashuvi bilan farqlansa-da, ularni umumiy maqsad — arab grammatikasi qoidalarini tizimlashtirish va keyingi avlodlarga yetkazish g‘oyasi birlashtiradi. Shu jihatdan Ibn Ajrumning didaktik yondashuvi bilan Mutarriziyning ilmiy-nazariy qarashlari o‘zaro uyg‘un bo‘lib, arab nahv ilmining uzviy rivojlanish bosqichlarini aks ettiradi.

Bu ikki olimning ilmiy merosini qiyosiy tahlil qilish klassik arab tilshunosligida nahv ilmining taraqqiyot yo‘nalishlarini aniqlash, grammatik terminologiyaning shakllanish jarayonini yoritish hamda ularning zamonaviy arab tilini o‘qitish metodikasidagi ahamiyatini baholash imkonini beradi. Shuningdek, al-Mutarriziy asarlaridagi nazariy qarashlar va Ibn Ajrumning ta’limiy uslubi bugungi kunda arab tili grammatikasini o‘qitishda bir-birini to‘ldiruvchi ilmiy manbalar sifatida muhim ahamiyatga ega.

Ibn Ajrum 672 hijriy yilda Marokashning qadimiy ilm markazi bo‘lgan Fez shahrida tug‘ilgan 1. Uning to‘liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Muhammad ibn Dovud as-Sanhajiy bo‘lib, “Ajrum” laqabi berbercha “zohid”, “faqir”, “Alloh yo‘lida yurgan kishi” degan ma’noni anglatadi 2. Ushbu laqab dastlab uning bobosiga nisbatan ishlatilgan bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan butun avlodni ifodalovchi nomga aylangan.

O‘rta asrlarda Fez Islom olamining eng muhim ilmiy markazlaridan biri sanalgan. Bu yerga:

Andalusiyadan quvg‘in qilingan olimlar,

Magʻribning qiroat, fiqh va tilshunoslik ulamolari,
Mashhur Qurʻon qiroatlari xattotlari,
Malikiya fiqhining yetuk vakillari
jamlangan edi. Aynan shunday serqirra ilmiy muhit Ibn Ajrumning dunyoqarashini shakllantirdi.

Ibn Ajrum Fezning mashhur Qaraviyin madrasasida taʼlim olgan 3. Bu madrasa nafaqat Magʻrib, balki butun islom olamidagi eng qadimgi universitetlardan biri boʻlib, tahsildagi qatʼiyligi bilan mashhur edi. U yerda Ibn Ajrum:

Nahv va sarf – Abu Ali ash-Shalubin,
Lugʻat – Ibn al-Hajj,
Fiqh – Maliki ulamolari,
Qiroat – mashhur qorilar
qoʻlida tahsil olgan 3.

Uning yuksak zehni tufayli u qisqa fursatda nahv ilmining eng chuqur masalalarini mukammal egalladi. Ustozlari uning tafakkuri teranligini taʼkidlab, koʻpincha murakkab iʼrob masalalarini unga havola qilishgan.

Ibn Ajrum hayotining katta qismini Fezda oʻtkazgan, madrasalarda dars bergan va nahv taʼlimining yengil va sodda uslubini shakllantirgan. U oʻz shogirdlariga murakkab masalalarni amaliy misollar orqali tushuntirgan.

Uning mashhurligi shu darajada kuchli ediki, baʼzi tarixchilarning qayd etishicha, Magʻribning har bir qishlogʻida “Ajrumiyya”ni yod bilmaydigan bola boʻlmagan. U 723 hijriy yil (milodiy 1323) 1 mart kuni vafot etgan va Fezning Bab al-Futuh qabristoniga dafn etilgan. Uning qabri bugungi kunda ham ziyoratgoh sifatida tanilgan

Rivoyatlarga koʻra, Ibn Ajrum oʻz shogirdlarining nahvdagi qiyinchiliklarini koʻrib: “Agar biz Sibavayhining ‘Kitob’idagi uslubda dars davom ettirsak, talabalar nahvni tark etadi. Men ularga qisqa, aniq va yodlash oson boʻlgan risola yozaman”, – degan

Shu bois “al-Ajrumiyya” qisqa hajmli bo‘lsa-da, nahvning butun asosiy qoidalarini o‘z ichiga oladi.

Asar atigi 12–15 varaqdan iborat bo‘lishiga qaramay, unda arab grammatikasining eng markaziy bo‘limlari mujassam:

Kalom turlari – ism, fi‘l, harf

I‘rob alomatlari – raf‘, nasb, jarr, jazm

Mubtada va xabar, fi‘l va fail munosabatlari

Amillar – nasb beruvchilar, jazm beruvchilar

Mansubot, majzumot, majrurot

Atf, badal, ta‘kid, sifat, tamyiz kabi qo‘shimcha mavzular 6

Juda ixcham, Yodlash oson, Mantiqiy tartibda tuzilgan, Qur‘on oyatlari bilan asoslangan bo‘lib, Juda sodda jumlar orqali tushuntirilgan.

Bu uslub Sharq va G‘arb ilm dunyosida qabul qilingan. Ibn Ajrum nahv ilmi tarixida Basra-Kufa o‘rtasidagi sintez maktabining asoschisi sifatida qaraladi Basra maktabiga yaqinliklari “Jarr” atamasining qo‘llanishi Ismlarni i‘robga ko‘ra tasniflashda basralar uslubini tanlashi Amillar nazariyasidagi ayrim qarashlari

“Laa”ning nasb berishi Ba‘zi zarf va hol masalalarida kufaliklar kabi fikr yuritishi “Kayfa”ning hol sifatida qabul qilinishi Shu jihatlar uni mustaqil Mag‘rib tilshunosligi yo‘nalishining asoschilaridan biri sifatida mashhur qilgan.

Al-Suyutiy:“U Kufa maktabining so‘nggi buyuk namoyandalaridan biri edi”, – deya ta‘riflaydi.

Bu asar 8 asrdan buyon arab grammatikasining eng mashhur boshlang‘ich qo‘llanmasi bo‘lib kelmoqda.

“Asar” Marokash, Tunis, Jazoir madrasalarida, Misrning mashhur Al-Azhar universitetida, Turkiya madrasalarida, Indoneziya va Malayziya pesantrenlarida, Xitoyning islomiy o‘quv yurtlarida asosiy grammatika qo‘llanmasi sifatida o‘qitiladi

Sharhlar soni 100 dan ortiq, mashhurlari:

Ibn Hishom – “Shuzur az-zahab” 10.

Al-Azhariy – “at-Tasrif al-Ajrumiyya”

Xalil ibn Ishoq – “al-Manzuma”

Al-Bannaniy – “Fath ar-Rahmon”

Asar XVI asrda Yevropaga kirib kelgan va 1592 yilda Erpenius tomonidan lotin tiliga tarjima qilingan 11. Bu nahv ilmini yevropalik lingvistlar orasida o‘rganilishiga katta turtki bo‘ldi.

Ibn Ajrum nahv tarixi sahifasida bitta kitobi orqali o‘z nomini mangu qilgan muhrlagan noyob olimdir. “Ajrumiyya”ning sodda, aniq, mantiqiy va yodlashga qulay uslubi uni asrlar davomida eng ommabop grammatika darsligiga aylantirdi. Asar nafaqat Mag‘rib yoki Sharq mamlakatlarida, balki G‘arb ilm izlanishlarida ham bebaho manba bo‘lib xizmat qildi.

Ibn Ajrumning ilm yo‘lidagi ixlosi, tasavvufiy kamtarligi, ta’limni xalq orasiga keng yoyishga bo‘lgan intilishi uni ilm tarixidagi eng ulug‘ nahvshunoslardan biriga aylantirdi.

Ibn Ajrum va Nosir al-Mutarriziy arab nahv ilmining turli bosqichlarini ifodalovchi ikki yirik tilshunos hisoblanadi. Al-Mutarriziy Movarounnahr nahv maktabining yirik vakili sifatida grammatik masalalarni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilgan bo‘lsa, Ibn Ajrum ushbu ilmiy merosni ixcham va didaktik shaklda bayon etib, arab dunyosida eng mashhur boshlang‘ich nahv qo‘llanmalaridan biri — “Al-Muqaddima al-Ajrumiyya”ni yaratdi. Shu jihatdan Ibn Ajrum asari al-Mutarriziy va undan oldingi nahv olimlari shakllantirgan ilmiy an‘analarning mantiqiy davomi sifatida baholanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ibn Ajrum wa muqaddimatuhu. – Fez, 2018. – 5–28-bet.
2. Az-Zabidiy. *Toj al-arus*. – Bayrut, 1994. – 8-jild, 421-bet.
3. Muhammad Mahdi Alloh. *Tarikh an-nahv al-arabiy*. – Bayrut, 2005. – 312–318-bet.
4. Shawqi Dayf. *Al-Madrasat an-nahviyya*. – Qohira, 1986. – 445–452-bet.
5. Ahmad Makkiy. *Al-Ittijohot an-nahviyya fil-Mag‘rib*. – Rabot, 1990. – 123–140-bet.

6. Raxmonov, A. (2025). MUTARRIZIYNING “RISALATUN FIN-NAHV” ASARIDA TIL O‘QITISH USULLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 5(20), 126-130.
7. Turdiyeva, Y. The Portrait and Its Functions in the Work. *European Journal of Research Development and Sustainability*, 4(12), 1-3.
8. Turdiyeva, Y. Individuality Of The Literary Style (Based On The Novel “People In The Heat” By Luqmon Borikhan). *European Journal of Humanities and Educational Advancements*, 3(12), 17-18.
9. Жураева, М. А. (2013). Некоторые особенности склонения имен в грамматическом комментарии Абдурахмана Джами «Шарх мулла». *Вестник Челябинского государственного университета*, (23 (314)), 121-125.
10. RAXIMJONOV, M., & Samadova, G. (2025). MIRZA ULUGBEK PATRON OF LITERATURE. *The Journal of Interdisciplinary Human Studies*, 1(3), 110-117.
11. TURSUNALIYEVA, M. (2025). OGHIYNING “ZUBDAT UT-TAVORIX” ASARIDA HAMD MATNIDAGI SO‘ZLAR JILVASI. «*ACTA NUUz*», 1(1.7), 310-312.
12. Viktoriya, M. (2025). FE’L MAYLLARINING O ‘ZGARISHIGA SABAB BO ‘LUVCHI YUKLAMALAR TAHLILI. *YANGI RENESSANSDA ILM-FAN TARAQQIYOTI*, 1(3), 560-563.
13. MUZEYI, A. N. N. D. A., & MEROSI–MO‘TABAR MADANIY, M. A. N. B. A. (2024). ORIENTAL UNIVERSITETI O ‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI.
14. Raxmonov, A. K. (2024). *Al-Farg‘oniyning «Usturlob yasash haqida kitob»ining Britaniya muzeyida saqlanayotgan “OR 5479” raqamli qo‘lyozma nusxasi. Til va adabiyot.uz*, 2024(1), 22–26.
15. Raxmonov, A. K. (2023). *Oliy ta’lim muassasalarida arab tilini o‘qitishning zamonaviy usullari. In “Bir makon, bir yo‘l” (SIRCON 2023) xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami (pp. 1848–1853). Alfraganus University.*